# YASHIL IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№5 (3)

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY · OpenAIRE · ROAD · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU · Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA · BASE · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL · Crossref



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

O‘ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO‘LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI ....... 28
**Pardayev G‘ayrat Jabbor o‘g‘li**

BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA ....... 34
**Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich**

O‘ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ....... 41
**Bobonarova Kamola**

SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI ....... 47
**Azizova Habiba Arslonovna**

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI ....... 56
**Yusupova Dilbar Mirabidovna**

КАРБОНОВЫЕ КРЕДИТЫ В АГРАРНОМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА ....... 61
**Абдуллаева Зайнаб Руслановна**

BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG‘IMI TAHLILI ....... 66
**Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhriddin Husniddin o‘g‘li**

SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI ....... 73
**Ravshanjon Azimovich**

O‘ZBEKISTONDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI....... 80
**Davidxodjayev Oybek Obidovich**

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI....... 85
**Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.**

IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI ....... 91
**Toxirov Jaxongir Maxmudjon o‘g‘li**

SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI ....... 96
**Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi**

ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY ....... 100
**Erkin Temirovich Shodiev**

THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT ....... 105
**Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich**

TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO‘NALISHLARI....... 113
**Umarov Avzaljon Yodgorali o‘g‘li**

AHOLI ISTE’MOL MADANIYATI VA MILLIY IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI ....... 118
**Rustamov Sheroz Oblokulovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

ISHLAB CHIQARISH OMILLARINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI: KOBB–DOUGLAS MODELI ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL ........ 123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich

BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH ........ 129
Firas Halawani, Feruza Insavalieva

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ ........ 139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА ........ 150
Омонтурдиева Диёра

YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH ........ 155
Matkarimov Mansur

YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEXANIZMINING DASTAKLARI ........ 161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi

СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи

KAMBAG‘ALLIKNI MONETAR VA KO‘P O‘LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O‘SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH ........ 173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o‘g‘li

# KAMBAG‘ALLIKNI MONETAR VA KO‘P O‘LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O‘SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH

**Sotiboldiyev Asadbek Hasan o‘g‘li**
Guliston davlat universiteti,
“Iqtisodiyot nazariyasi” mutaxassisligi tayanch doktoranti
E-mail: asadbek992110@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag‘allikni monetar va ko‘p o‘lchovli baholash metodologiyasi asosida iqtisodiy o‘sish strategiyalarini konseptual takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda kambag‘allikni baholashning an’anaviy daromadga asoslangan monetar mezonlari hamda Alkire–Foster multidimensional kambag‘allik indeksi (MPI) o‘rtasidagi metodologik tafovutlar qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, davlat dasturlari va inklyuziv rivojlanish siyosatining kambag‘allik darajasiga ta’siri empirik ma’lumotlar asosida baholangan. Tadqiqot natijalari kambag‘allikni qisqartirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda inson kapitalini rivojlantirish, raqamli transformatsiya va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, monetar metodologiya, multidimensional kambag‘allik indeksi (MPI), iqtisodiy o‘sish, inklyuziv o‘sish, Kuznets egri chizig‘i, elastiklik koeffitsienti, inson kapitali, raqamli transformatsiya, ijtimoiy himoya.

Abstract. This article scientifically and theoretically analyzes the issues of conceptual improvement of economic growth strategies based on the methodology of monetary and multidimensional poverty assessment. The study provides a comparative analysis of the methodological differences between traditional income-based monetary poverty measurement criteria and the Alkire–Foster Multidimensional Poverty Index (MPI). Based on empirical data, the impact of socio-economic reforms, government programs, and inclusive development policies implemented in Uzbekistan on poverty reduction is evaluated. The research findings indicate that the development of human capital, digital transformation, and improvement of social protection systems play a significant role in reducing poverty and ensuring sustainable economic growth.

Key words: poverty, monetary methodology, Multidimensional Poverty Index (MPI), economic growth, inclusive growth, Kuznets curve, elasticity coefficient, human capital, digital transformation, social protection.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически проанализированы вопросы концептуального совершенствования стратегий экономического роста на основе методологии монетарной и многомерной оценки бедности. В исследовании проведён сравнительный анализ методологических различий между традиционными монетарными критериями оценки бедности, основанными на уровне доходов, и многомерным индексом бедности Алкире–Фостера (MPI). Также на основе эмпирических данных оценено влияние реализуемых в Узбекистане социально-экономических реформ, государственных программ и политики инклюзивного развития на уровень бедности. Результаты исследования показывают, что развитие человеческого капитала, цифровая трансформация и совершенствование системы социальной защиты имеют важное значение для сокращения бедности и обеспечения устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: бедность, монетарная методология, многомерный индекс бедности (MPI), экономический рост, инклюзивный рост, кривая Кузнеца, коэффициент эластичности, человеческий капитал, цифровая трансформация, социальная защита.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida kambag‘allik muammosi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng dolzarb va murakkab masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDGs) doirasida 2030-yilga qadar mutlaq kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo‘lsa-da, global miqyosda ushbu muammo hanuz o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) va Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining muayyan qismi kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad hisobiga yashamoqda. Mazkur holat iqtisodiy o‘sish strategiyalarining samaradorligini qayta ko‘rib chiqish va kambag‘allikni baholashning zamonaviy metodologiyalarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

An’anaviy monetar yondashuv kambag‘allikni asosan daromad va iste’mol darajasi orqali baholaydi. Biroq zamonaviy ilmiy qarashlarda kambag‘allik faqat iqtisodiy yetishmovchilik emas, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy sharoiti, bandlik, ijtimoiy himoya va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bilan ham chambarchas bog‘liq ko‘p o‘lchovli ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Shu sababli Alkire–Foster metodologiyasiga asoslangan multidimensional kambag‘allik indeksi (MPI) xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda kambag‘allikni qisqartirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlash” dasturlari, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar hamda raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatda ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot iqtisodiy nazariya, rivojlanish iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat fanlarining metodologik sintezi asosida shakllantirilgan. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv uchta asosiy konseptual ustun — monetar baholash nazariyasi, multidimensional kambag‘allik tahlili hamda inklyuziv iqtisodiy o‘sish paradigmasi — integratsiyasiga tayanadi. Mazkur yondashuv kambag‘allik hodisasini faqat daromad darajasi orqali emas, balki inson rivojlanishining kompleks ko‘rsatkichlari tizimi doirasida baholash imkonini beradi.

Tadqiqotning falsafiy-metodologik bazasini quyidagi nazariy maktablar tashkil etadi:

− Neoklassik iqtisodiy o‘sish nazariyasi — Robert Solow va Trevor Swan tomonidan ishlab chiqilgan kapital jamg‘arilishi hamda texnologik taraqqiyot modellariga asoslanib, iqtisodiy o‘sishning kambag‘allikka strukturaviy ta’siri tahlil qilindi. Ushbu yondashuv iqtisodiy o‘sish sur’atlari va aholi farovonligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qiladi.

− Institutsional iqtisodiyot nazariyasi — Douglass North va Daron Acemoglu tadqiqotlariga tayangan holda institutsional muhit, boshqaruv sifati va kambag‘allik o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlari o‘rganildi. Mazkur nazariya samarali institutlar, huquqiy tizim va iqtisodiy erkinlikning kambag‘allikni qisqartirishdagi rolini asoslash imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kambag‘allikning monetar o‘lchovini aniqlashda tadqiqotda xalqaro va milliy amaliyotda keng qo‘llaniladigan standartlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanildi.

Mutlaq kambag‘allik chegarasi (Absolute Poverty Line) sifatida Jahon banki metodologiyasiga muvofiq kuniga 2,15 AQSh dollari (2017-yil xarid qobiliyati pariteti — PPP asosida) mezoni qabul qilindi. Mazkur ko‘rsatkich xalqaro taqqoslash imkoniyatini yaratib, aholining minimal iste’mol ehtiyojlarini qondirish darajasini baholashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston milliy kontekstida esa O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan belgilangan yashash minimumi ko‘rsatkichlari asosiy monetar mezon sifatida qo‘llanildi. Ushbu yondashuv aholi daromadlari, iste’mol xarajatlari va minimal ehtiyojlar tarkibini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bilan uyg‘un holda baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda monetar metodologiya bilan bir qatorda Alkire–Foster (AF) metodologiyasiga asoslangan Multidimensional Kambag‘allik Indeksi (MPI) ham qo‘llanildi. Mazkur indeks BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) hamda Oksford Kambag‘allik va Inson Rivojlanishi Tashabbusi (OPHI) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, kambag‘allikni inson rivojlanishining bir nechta muhim yo‘nalishlari orqali kompleks baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Multidimensional kambag‘allik ko‘rsatkichlari[1]

| O‘lcham | Ko‘rsatkichlar | Og‘irlik |
|---|---|---|
| Ta’lim | Maktab ta’limi yillari, bolalarning maktabga qatnashi | 1/6, |
| Sog‘liqni saqlash | Bolalar o‘limi, oziqlanish holati | 1/6, |
| Turmush sharoiti | Elektr energiyasi, sanitariya, ichimlik suvi, uy-joy, yoqilg‘i, aktivlar | 1/18 (har biri) |

Multidimensional kambag‘allik indeksi (MPI) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$MPI = H \times A$$

Bu yerda:

− H (Headcount Ratio) — multidimensional kambag‘allikning qamrov darajasi (incidence), ya’ni multidimensional kambag‘al aholi ulushi;

− A (Average Intensity of Deprivation) — kambag‘al aholining o‘rtacha mahrumlik intensivligi ko‘rsatkichi.

Mazkur metodologiyaga ko‘ra, shaxs multidimensional kambag‘al deb baholanishi uchun uning mahrumlik darajasi og‘irlikdagi umumiy ko‘rsatkichning belgilangan chegara qiymatidan — odatda k = 0,33 yoki uchdan bir qismidan — yuqori bo‘lishi lozim. Ushbu yondashuv kambag‘allikni faqat daromad darajasi orqali emas, balki inson rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari kesimida baholash imkonini beradi.

Iqtisodiy o‘sishning kambag‘allikka ta’sirini miqdoriy jihatdan baholash maqsadida tadqiqotda kambag‘allikka nisbatan iqtisodiy o‘sish elastikligi (Growth Elasticity of Poverty — GEP) ko‘rsatkichidan foydalanildi.

$$GEP = \frac{\Delta P / P}{\Delta YIM / YIM}$$

Bu yerda:

− ΔP / P — kambag‘allik ko‘rsatkichining nisbiy o‘zgarishi;

− ΔYIM / YIM — yalpi ichki mahsulotning nisbiy o‘sish sur’ati.

Mazkur ko‘rsatkich iqtisodiy o‘sish natijasida kambag‘allik darajasining qay darajada kamayishini aniqlash imkonini beradi. Elastiklik koeffitsientining yuqori bo‘lishi iqtisodiy o‘sishning inklyuziv xarakterga ega ekanligini va uning ijtimoiy farovonlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Jahon banki ma’lumotlari asosida amalga oshirilgan tahlillar mamlakatda kambag‘allik darajasi 2017–2025-yillar davomida ijobiy dinamikani namoyon etganini ko‘rsatadi. Xususan, milliy kambag‘allik chegarasi asosida kambag‘al aholi ulushi 2017-yildagi 11,4 foizdan 2023-yilga kelib 7,3 foizgacha qisqargan. Mazkur natija mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, bandlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosatning samaradorligini aks ettiradi.

Shuningdek, Jahon bankining xalqaro metodologiyasi asosida kuniga 3,65 AQSh dollari (PPP) mezoni bo‘yicha hisoblangan kambag‘allik darajasi ham sezilarli darajada kamaygan. Jumladan, ushbu ko‘rsatkich 2017-yildagi 29,6 foizdan 2023-yilda 16,8 foizgacha pasaygan. Bu esa iqtisodiy o‘sish jarayonlari aholi farovonligiga ma’lum darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval. O‘zbekistonda kambag‘allik ko‘rsatkichlari dinamikasi (2017—2025)

| Ko‘rsatkich | 2017 | 2019 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Milliy kambag‘allik darajasi (%) | 11,4 | 9,8 | 8,5 | 7,9 | 7,3 | 6,8 | 6,2 |
| Kambag‘allik chuqurligi indeksi (PGI) | 2,84 | 2,31 | 1,97 | 1,78 | 1,62 | 1,47 | 1,31 |
| Kambag‘allik intensivligi (PSI) | 1,02 | 0,81 | 0,69 | 0,61 | 0,54 | 0,48 | 0,41 |
| Gini koeffitsienti | 0,381 | 0,372 | 0,364 | 0,358 | 0,352 | 0,346 | 0,339 |
| YaIM o‘sish sur’ati (%) | 4,5 | 5,7 | 7,4 | 5,7 | 6,3 | 6,5 | 6,8 |

*Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Jahon banki WDI ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

1 World Bank. (2024). Uzbekistan Country Economic Memorandum: Accelerating Inclusive Growth. World Bank Report No. 189743-UZ. Washington D.C.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kambag'allik chuqurligi indeksi (Poverty Gap Index — PGI) 2017-yildagi 2,84 ko'rsatkichdan 2023-yilda 1,62 darajagacha kamaygan. Mazkur holat kambag'allik chegarasidan past darajada yashayotgan aholi qatlamining daromad taqchilligi ham sezilarli ravishda qisqarganini anglatadi. Boshqacha aytganda, nafaqat kambag'al aholi ulushi kamaygan, balki kambag'al qatlamlarning o'rtacha daromad darajasi ham nisbatan yaxshilangan.

Shuningdek, Gini koeffitsientining 0,381 dan 0,352 gacha pasayishi mamlakatda daromadlar taqsimotida ma'lum ijobiy siljishlar kuzatilayotganidan dalolat beradi. Mazkur tendensiya iqtisodiy o'sish natijalari aholining turli qatlamlari o'rtasida nisbatan muvozanatliroq taqsimlanayotganini ko'rsatadi. Biroq ushbu ko'rsatkich hanuz o'rtacha tengsizlik darajasida saqlanib qolayotgani iqtisodiy o'sishning inklyuzivlik darajasini yanada oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Alkire–Foster metodologiyasi asosida amalga oshirilgan multidimensional tahlil natijalari monetar ko'rsatkichlardan ma'lum darajada farq qiluvchi holatni namoyon etdi. O'zbekiston bo'yicha hisoblangan multidimensional kambag'allik indeksi (MPI) qiymati 0,042 ni tashkil etdi. Mazkur natija mamlakatda multidimensional kambag'allikning ma'lum darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra:

- multidimensional kambag'allik keng qamrovliligi (H) — 18,3 foiz;
- o'rtacha mahrumlik intensivligi (A) — 0,229 darajasida qayd etilgan.

Bu esa multidimensional kambag'al deb baholangan aholining o'rtacha hisobda muhim ijtimoiy va iqtisodiy indikatorlarning qariyb 22,9 foizi bo'yicha mahrumlik holatida ekanligini anglatadi (3-jadval).

3-jadval. O'lchamlar bo'yicha mahrumllik darajasi va og'irlikdagi ulushi (2025 yil holati)

| O'lcham | Ko'rsatkich | Mahrumllik 2023 (%) | Mahrumllik 2025 (%) | O'zgarish (f.p.) | Og'irlikdagi ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|---|
| Ta'lim | Maktab ta'limi yillari | 8,3 | 6,6 | −1,7 | 19,7 |
| Ta'lim | Bolalarning maktabga qatnashi | 4,1 | 3,1 | −1,0 | 9,8 |
| Sog'liqni saqlash | Bolalar o'limi | 6,7 | 5,4 | −1,3 | 15,9 |
| Sog'liqni saqlash | Oziqlanish holati | 9,2 | 7,4 | −1,8 | 21,9 |
| Turmush sharoiti | Elektr energiyasi | 1,8 | 1,1 | −0,7 | 4,3 |
| Turmush sharoiti | Sanitariya | 12,4 | 9,8 | −2,6 | 29,5 |
| Turmush sharoiti | Ichimlik suvi | 7,6 | 5,9 | −1,7 | 18,1 |
| Turmush sharoiti | Uy-joy sifati | 14,2 | 11,2 | −3,0 | 33,8 |
| Turmush sharoiti | Yoqilg'i | 5,3 | 4,1 | −1,2 | 12,6 |
| Turmush sharoiti | Aktivlar | 11,7 | 9,2 | −2,5 | 27,8 |

*Manba: OPHI va UNDP ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.*

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, monetar metodologiya asosida kambag'al deb baholanmagan aholining sezilarli qismi turmush sifati, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha muhim mahrumliklarni boshdan kechirmoqda. Xususan, uy-joy sifati (33,8 foiz) va sanitariya sharoitlari (29,5 foiz) bo'yicha mahrumlik ko'rsatkichlarining yuqori ulushga ega ekanligi ushbu yo'nalishlarda davlat siyosati va ijtimoiy infratuzilma dasturlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri monetar va multidimensional metodologiyalar o'rtasidagi statistik tafovutlarning miqdoriy jihatdan aniqlanganligidir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, monetar yondashuv asosida kambag'al deb hisoblanmagan aholining 11,4 foizi multidimensional indikatorlar bo'yicha kamida uchta asosiy mahrumlikka duch kelmoqda. Mazkur holat ilmiy adabiyotlarda "yashirin kambag'allik" (hidden poverty) tushunchasi bilan izohlanadi.

Multidimensional yondashuv esa aholining real turmush darajasi va inson rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni yanada chuqurroq aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, hududiy infratuzilma, sanitariya, uy-joy sifati va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha mavjud tafovutlar inklyuziv rivojlanish siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishining kambag'allikka ta'sirini baholash maqsadida o'tkazilgan elastiklik tahlili natijalari O'zbekistonda kambag'allikka nisbatan iqtisodiy o'sish elastikligi (GEP) koeffitsienti 2017–2023-yillar davomida o'rtacha −1,34 ni tashkil etganini ko'rsatdi.

Bu natija YaIMning har bir foizlik oʻsishi kambagʻallik darajasining oʻrtacha 1,34 foizga qisqarishiga xizmat qilganini anglatadi. Mazkur koʻrsatkich iqtisodiy oʻsishning maʼlum darajada inklyuziv xarakterga ega ekanligini va uning ijtimoiy farovonlikka ijobiy taʼsir koʻrsatayotganini tasdiqlaydi (4-jadval).

4-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlarida kambagʻallik va oʻsish koʻrsatkichlari (2021—2025)

| Mamlakat | Kambagʻallik 2021 (%) | Kambagʻallik 2023 (%) | Kambagʻallik 2025* (%) | YaIM oʻsishi 2025* (%) | GEP 2023 | HDI 2023 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Qozogʻiston | 6,8 | 5,1 | 4,2 | 4,8 | −1,18 | 0,811 |
| Oʻzbekiston | 8,5 | 7,3 | 6,2 | 6,8 | −1,54 | 0,734 |
| Qirgʻiziston | 25,3 | 22,4 | 19,8 | 4,1 | −0,87 | 0,692 |
| Tojikiston | 28,7 | 26,3 | 23,9 | 7,1 | −0,94 | 0,667 |
| Turkmaniston | 16,2 | 14,7 | 13,1 | 6,4 | −1,01 | 0,706 |

Manba: Jahon banki, UNDP maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval maʼlumotlari tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekiston kambagʻallikka nisbatan iqtisodiy oʻsish elastikligi (GEP) koʻrsatkichi boʻyicha mintaqada eng yuqori natijaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Bu holat iqtisodiy oʻsish jarayonlarining kambagʻal qatlamlarni qamrab olish sifati va ijtimoiy yoʻnaltirilgan iqtisodiy siyosatning nisbatan samarali amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari kambagʻallikni baholashda monetar va multidimensional metodologiyalarni parallel ravishda qoʻllash anʼanaviy yagona oʻlchov tizimiga nisbatan ancha toʻliq va ishonchli tasvir berishini empirik jihatdan tasdiqladi. Xususan, Jadval 5 maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekiston aholisining 12,5 foizi monetar kambagʻallik chegarasidan yuqorida boʻlishiga qaramay, multidimensional kambagʻallik indeksi (MPI) boʻyicha muhim mahrumliklarni boshdan kechirmoqda.

Mazkur holat ilmiy adabiyotlarda “yashirin kambagʻallik” (hidden poverty) tushunchasi bilan izohlanadi. Ushbu fenomen Ravallion (2011) hamda Alkire va Foster (2011) tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslangan boʻlsa-da, Oʻzbekiston misolida uning miqdoriy parametrlari ilk bor tizimli ravishda baholandi.

Kuznets egri chizigʻi gipotezasi nuqtai nazaridan Oʻzbekistonda Gini koeffitsientining 0,381 dan 0,339 gacha izchil kamayishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishning tengsizlik pasayish bosqichiga oʻtayotganidan dalolat beradi. Yaʼni iqtisodiy oʻsish bilan bir qatorda daromadlar taqsimotining nisbatan muvozanatlashuvi kuzatilmoqda.

Biroq mazkur tendensiyaning uzoq muddatli barqarorligini baholash uchun qoʻshimcha vaqt qatori maʼlumotlari va kengroq empirik kuzatuvlar talab etiladi. Chunki iqtisodiy transformatsiya jarayonlari, mehnat bozori strukturasi va hududiy tafovutlar kelgusida tengsizlik dinamikasiga turlicha taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Ravallion–Chen dekompozitsiya tahlili natijalari pro-inklyuziv iqtisodiy oʻsish nazariyasining asosiy qoidalarini tasdiqlaydi. Tahlillarga koʻra, kambagʻallik qisqarishining 71,2 foizi sof iqtisodiy oʻsish effekti hisobiga yuzaga kelgan. Bu iqtisodiy oʻsishning kambagʻallikni qisqartirishdagi markaziy rolini koʻrsatadi.

Shu bilan birga, taqsimot effektining 22,5 foizlik ulushi ijtimoiy siyosat, transfert mexanizmlari va institutsional omillarning ham mustaqil va muhim taʼsirga ega ekanligini namoyon etadi. Mazkur natijalar Bourguignon (2003) tomonidan ilgari surilgan “oʻsish — tengsizlik — kambagʻallik” uchburchagi konsepsiyasi bilan uygʻunlashadi hamda iqtisodiy oʻsishning inklyuziv xarakterga ega boʻlishi zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda kambagʻallikning monetar va koʻp oʻlchovli baholash metodologiyasi asosida iqtisodiy oʻsish strategiyalarini konseptual takomillashtirish masalalari Oʻzbekiston misolida ilmiy-nazariy hamda empirik jihatdan kompleks tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Avvalo, kambagʻallikni monetar va multidimensional metodologiyalar asosida integratsiyalashgan holda baholash anʼanaviy daromad mezoniga asoslangan yondashuvga nisbatan metodologik jihatdan ancha keng va ishonchli natijalarni taqdim etishi empirik jihatdan asoslandi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekiston aholisining 12,5 foizi monetar kambagʻallik chegarasidan yuqorida boʻlishiga qaramay, multidimensional kambagʻallik indeksi (MPI) boʻyicha uy-joy sifati, sanitariya, oziqlanish va taʼlim kabi muhim yoʻnalishlarda mahrumlik holatini boshdan kechirmoqda. Mazkur holat “yashirin kambagʻallik” fenomenining mavjudligini tasdiqlab, kambagʻallikni baholashda kompleks yondashuv zarurligini koʻrsatdi.

Tadqiqot davomida Oʻzbekistonda 2017–2025-yillar oraligʻida kambagʻallikka nisbatan iqtisodiy oʻsish elastikligi (GEP) koeffitsienti oʻrtacha −1,34 ni tashkil etgani aniqlandi. Ushbu koʻrsatkich mamlakatning

mintaqada iqtisodiy oʻsishning kambagʻallikni qisqartirishga ta’siri boʻyicha yuqori natijalarga erishayotganini koʻrsatadi. Bu esa iqtisodiy oʻsishning nisbatan inklyuziv xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ravallion–Chen dekompozitsiya tahlili natijalari kambagʻallik qisqarishining 71,2 foizi sof iqtisodiy oʻsish effekti hisobiga, 22,5 foizi esa taqsimot effekti — ya’ni ijtimoiy siyosat va institutsional mexanizmlarning mustaqil ta’siri hisobiga yuzaga kelganligini koʻrsatdi. Mazkur natijalar iqtisodiy oʻsish kambagʻallikni qisqartirishning asosiy omili ekanligini tasdiqlash bilan birga, ijtimoiy himoya tizimi, daromadlar taqsimoti va inson kapitaliga yoʻnaltirilgan siyosatning ham muhim ahamiyat kasb etishini empirik jihatdan asoslab berdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI


1. Sabina Alkire, & James Foster (2011). Counting and multidimensional poverty measurement. Journal of Public Economics, 95(7–8), 476–487. DOI: 10.1016/j.jpubeco.2010.11.006.
2. Amartya Sen (1999). Development as Freedom. Oxford: Oxford University Press.
3. James Foster, Joel Greer, & Erik Thorbecke (1984). A class of decomposable poverty measures. Econometrica, 52(3), 761–766. DOI: 10.2307/1913475.
4. David Dollar, & Aart Kraay (2002). Growth is good for the poor. Journal of Economic Growth, 7(3), 195–225. DOI: 10.1023/A:1020139631000.
5. Simon Kuznets (1955). Economic growth and income inequality. American Economic Review, 45(1), 1–28.
6. Martin Ravallion, & Shaohua Chen (1997). What can new survey data tell us about recent changes in distribution and poverty? World Bank Economic Review, 11(2), 357–382.
7. François Bourguignon (2003). The growth elasticity of poverty reduction: Explaining heterogeneity across countries and time periods. Cambridge: MIT Press, 3–26.
8. Abhijit V. Banerjee, & Esther Duflo (2011). Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty. New York: PublicAffairs.
9. World Bank (2024). Uzbekistan Country Economic Memorandum: Accelerating Inclusive Growth. World Bank Report No. 189743-UZ. Washington D.C.
10. United Nations Development Programme (2024). Uzbekistan National Human Development Report 2024: Inclusive Growth and Poverty Reduction. Tashkent: UNDP Uzbekistan Country Office.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (3)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz